



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORPORATIV QONUNCHILIK TIZIMI

Xabibullaev Davlatjon Yulchibayevich

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori,
yuridik fanlar nomzodi*

Ibratova Feruza Boboqulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori v.b.,
yuridik fanlar doktori*

Hatamjonova Xadisaxon Saloxiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida korporativ qonunchilik tizimi manbalari, ularga nisbatan olimlarning qarashlari o`rganilgan va tahlil qilingan. Qanday hujjat va qonunlar Korporativ huquq tizimi manbasi bo`lishi keltirib o`tilgan. Chet el qonunchilik tizimi o`rganilib, tahlil qilingan. Mazkur munosabatlarga nisbatan ayrim xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so`zlar: *korporatsiya, korporativ huquq, korporativ qonunchilik tizimi, huquq normasi, normativ-huquqiy hujjat, lokal hujjat, sud hujjati, Korporativ boshqaruvi kodeksi, mahalliy odat va an`analar.*

КОРПОРАТИВНАЯ ПРАВОВАЯ СИСТЕМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибаевич

*профессор Ташкентского государственного юридического университета,
кандидат юридических наук*

Ибратова Феруза Бобокуловна

*И.о. профессора Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук*

Хатамжонова Хадисахон Салохиддин кизи

*Магистрант Ташкентского государственного
юридического университета*

Аннотация: В данной статье изучены и проанализированы источники корпоративного права в Республике Узбекистан, мнения ученых относительно них. Упоминаются какие документы и законы являются источником системы корпоративного права. Изучена и проанализирована зарубежная правовая система. Даны некоторые выводы и предложения относительно этих отношений.

Ключевые слова: корпорация, корпоративное право, корпоративная правовая система, правовая норма, нормативный правовой документ, локальный документ, судебный документ, Кодекс корпоративного управления, местные обычаи и традиции.



CORPORATE LEGAL SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Khabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

*Professor of Tashkent State Law University,
PhD in Law*

Ibratova Feruza Bobokulovna

*Professor of Tashkent State Law University,
Doctor of Law*

Khatamjonova Khadisakhon Salokhiddin kizi

*Master student of the Tashkent State
Law University*

Annotation: In this article, the sources of the corporate legal system in the Republic of Uzbekistan, the opinions of scientists regarding them are studied and analyzed. What documents and laws are the source of the corporate law system are mentioned. The foreign legal system was studied and analyzed. Some conclusions and suggestions are given regarding these relations.

Key words: corporation, corporate law, corporate legal system, legal norm, regulatory legal document, local document, court document, Corporate Management Code, local customs and traditions.

Har bir soha rivojlanib borgan sari, ushbu sohani tartibga soluvchi va shu sohada yuzaga keladigan nizolarni munosib hal qiluvchi qonun normalarini yaratish hamda ularni bir tizimga solish muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasida ham korporativ huquqiy munosabatlar rivojlanishi bilan korporativ qonunchilik tizimini yaratishga ehtiyoj sezildi⁴⁰. Huquqqa oid umumiy nazariyadan kelib chiqadigan bo`lsak, korporatsiyalar faoliyati bilan bog`liq ichki va tashqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig`indisi korporativ huquqni tashkil qiladi⁴¹.

Hozirgi kunda korporativ huquq huquqning muhim sohalaridan biri hisoblansa-da, u boshqa sohalar va o`zaro bog`langan sohalar bilan birgalikda namoyon bo`ladi⁴².

Fuqarolik huquqi har bir huquqning asosi ekanligini inobatga oladigan bo`lsak, korporativ huquq ham asosan fuqarolik huquqi normalarini o`z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda, ma`muriy huquq, xo`jalik huquqi, tadbirkorlik huquqi, tijorat huquqi, aksiyadorlik huquqi, moliyaviy huquq va shunga o`xshash huquq sohalari normalarini ham

⁴⁰ Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 5-13.

⁴¹ Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG ‘LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 96-104.

⁴² Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA-SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.

qamrab oladi. Ammo bu huquq sohalaridan o`ziga xos farqli jihatlari bilan ham ajralib turadi⁴³.

Aksariyat xorijiy davlatlar qonunchiliga ko`ra, korporativ huquq nafaqat davlat tomonidan o`rnatilgan huquq normalarini, balki korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan va o`rnatilgan, korporatsiya a`zolarining va mablag`larining birlashtirishga asoslangan, korporatsiya mehnat jamoasi erki va xohish-irodasini ifodalaydigan, korporatsiyaning ichki va tashqi faoliyatini tartibga soladigan qoidalar va axloq normalarini ham o`z ichiga oladi⁴⁴. Masalan, Rossiyada korporativ huquqni “xo`jalik jamiyatlari va shirkatlari huquqi” deb atashsa, Fransiyada “savdo shirkati huquqi” deb atashadi. AQSH va Kanadada esa korporativ huquq tushunchasini boshqa davlatlarga nisbatan tor doirada ishlataladi. Ya`ni, ustav kapitali aksiyalarga bo`lingan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo`llaniladi, hattoki “aksiyadorlik huquqi” deb ham ataladi.

Korporativ huquq korporativ qonunchilikka nisbatan kengroq tushuncha bo`lib, korporativ qonunchilik korporatsiyalarning tashkil etilishi, faoliyat yuritilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog`liq bo`lgan huquq normalarini o`z ichiga olsa, korporativ huquq esa shu kabi normative-huquqiy hujjatlar bilan birgalikda korporatsiyaning ichki local hujjatlari, sud hujjatlari va ish muomalasi odatlari, mahalliy urf-odatlarini ham qamrab oladi⁴⁵.

Korporativ huquq tarkibiga kiradigan hujjatlar va normalarni quyidagi 4 turga bo`lishimiz mumkin:

1. Korporativ qonunchilikka oid.
2. Ichki lokal hujjatlarga oid.
3. Sud amaliyotiga oid.
4. Mahalliy odat, an`analar va axloqiy normalarga⁴⁶.

O`zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi qonunidan kelib chiqadigan bo`lsak, korporativ qonunchilikka oid qonun hujjatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Qonunlar;
- Oliy Majlis palatalari qarorlar;
- O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari;
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;
- Vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarining buyruqlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari.

⁴³ Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O ‘RTASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.

⁴⁴ Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.

⁴⁵ Boboqulovna I. F., Orif o`g`li R. B. MEDIATSIYA-OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.

⁴⁶ Boboqulovna I. F., Mamarjon o`g`li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O`RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.

Qonunlarga to`xtalib o`tadik bo`lsak, xalqaro huquqning umume`tirof etilgan huquq va normalari, shu bilan birgalikda xalqaro shartnomalar o`zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida, Agar O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O`zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo`lsa, xalqaro huquq normalari qo`llanilishi belgilangan⁴⁷. “Xalqaro shartnomalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qununi 27-moddasida O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga O`zbekiston Respublikasi xalqaro huquq va normalariga muvofiq qat`iy va majburiy ravishda riosa etishi kerakligi belgilangan. Shu bois ham O`zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida, Xalqaro huquqning umume`tirof etilgan prinsiplari va normalarida aks etgan qoidalarning korporativ huquqiy munosabatlarga oid qismi korporativ huquqning manbasi hisoblanadi⁴⁸.

Har bir huquq sohasida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asos vazifasini bajaradi, xususan korporativ qonunchilikda ham. Konstitutsiyamizning 65-66-moddalarida davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratishi, iste`molchilarining huquqi ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashi, xususiy mulkning daxlsizligi, undan sud qarorisiz mahrum etilmaslik, mulkdorning o`z molt-mukiga egalik qilish, tasarruf qilish va foydalanish huquqi mavjudligi, mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jamiyat va davlatning huquqlari va manfaatlariga ta`sir qilmasligi belgilangan⁴⁹.

Korporativ huquqqa tegishli bo`lgan yana bir asosiy qonun – O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidir. Ushbu kodeksda yuridik shaxs tushunchasi, turlari, uni davlat ro`yxatidan o`tkazish, qayta tashkil etish, tugatish, bankrot deb toppish, yuridik shaxsning huquq va majburiyatları, javobgarligi va boshqa korporatsiya faoliyatiga oid muhim qoidalari o`z aksini topgan⁵⁰.

Shu bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan korporatsiyaga solinadigan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar, ularni hisoblash va davlat budgetiga to`lash tartibi, soliqlarni o`z vaqtida to`lamaslik oqibatlari keltirib o`tilgan bo`lsa, O`zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan O`zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o`tish, ulardan bojxona to`lovlarini olib o`tish, bojxonada hujjalarni rasmiylashtirish,

⁴⁷ Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.

⁴⁸ Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG ‘LIQ MASALALARING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.

⁴⁹ Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

⁵⁰ Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.



bojxona nazoratini o`tkazish va bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik yuzasidan qoidalar belgilangan⁵¹.

Korporativ qonunchilik moddiy huquq normalari bilan birgalikda protsessual huquq normalarini ham o`z ichiga olishini hisobga olsak, O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida keltirib o`tilgan korporativ nizolar va ularni iqtisodiy sudlar tomonidan ko`rib chiqilishi, ko`rib chiqarilishi yuzasidan chiqarilgan sud hujjaligiga tegishli normalar korporativ qonunchilik normalari sifatida ko`rishimiz mumkin.

Korporativ huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjal turlaridan biri – O`zbekiston Respublikasi Qonunlari hisoblanadi⁵².

O`zbekiston Respublikasining “Mas`uliyati cheklangan jamiyat va qo`shimcha mas`uliyatlari jamiyat to`g`risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi, “Xo`jalik shirkati to`g`risida”gi, “Qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida”gi, “Dehqon xo`jaligi to`g`risida”gi, “Oilaviy tadbirkorlik to`g`risida”gi, “Banklar va bank faoliyati tog`risida”gi, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to`g`risida”gi, “Sug`urta faoliyati to`g`risida”gi va boshqa qonunlarda korporatsiya tushunchasi, turlari, uning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatları, tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi, tugatilishi, boshqaruv organlari, ularning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatları, korporatsiyalarning mol-mulkka egalik qilish tartibi, filial va vakolatxonalar oshish va shunga o`xhash muhim qoidalar belgilangan.

Bulardan tashqari Ozbekiston Respublikasining “Mulkchilik tog`risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati va erkinligining kafolatlari to`g`risida”gi, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi, “Chet el investitsiyasi to`g`risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralar to`g`risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida”gi, “Bankrotlik to`g`risida”gi, “Firma nomlari to`g`risida”gi, “Baholash faoliyati to`g`risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to`g`risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruhsat berish tartib-tamoyillari to`g`risida”gi va boshqa qonunlarda korporatsiyalar faoliyati bilan bevosita bog`liq bo`lgan va turli soha va yo`nalishlarga oid qoidalar va tartib-tamoyillar belgilab berilgan⁵³.

Shu bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan korporatsiyalar faoliyatiga oid qaror va farmonlar, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan chiqarilgan korporatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qarorlar ham korporativ qonunchilikning asosiy qismi sifatida qaraladi⁵⁴. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo`llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2023-yil 31-yanvardagi 39-sonli Qarori hamda uning ijrosini ta`minlash uchun 2023-yil 19-aprelda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul

⁵¹ Babakulovna I. F., Ibraimovich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 42-50.

⁵² Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.

⁵³ Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – Т. 45.

⁵⁴ Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

qilingan “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko`paytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi 161-sonli Qarori bunga misol bo`la oladi.

Tegishli tartibda Adliya vazirligi tomonidan ro`yxatdan o`tgan vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarning buyruqlari, qarorlari hamda ular bilan tasdiqlangan nizom, yo`riqnomalar va shunga o`xhash qonunosti hujjatlarini ham korporativ qonunchilik hujjatlari tarkibiga kiritish mumkin. Masalan, bunday hujjatlar sirasiga Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 27-oktabrda 1077-sod bilan ro`yxatdan o`tgan, IIB buyrug`I bilan tasdiqlangan “Muhrler va shtamplarni tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to`g`risida”gi Nizomni korporativ qonun hujjati tarkibiga kiritishimiz mumkin.

Bulardan tashqari, mahalliy davlat hokimiysi tomonidan korporatsiyalar faoliyatiga doir chiqarilgan qarorlar korporativ qonunchilik hujjatlari hisoblanadi va shu hududdagi korporatsiyalar uchun majburiydir. Bunga misol qilib, Toshkent shahar hokimining “Toshkent shahar va tuman hokimliklari, bosh boshqarma, boshqarma, korxona va tashkilotlarda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari, hukumat va shahar hokimi qarorlarini bajarilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to`g`risida” 2003-yil 8-maydagi 272-sod qarori bilan shu haqida Tartib tasdiqlangan va shu tartib asosida Toshkent shahridagi korxona va tashkilotlar ish olib boradigan bo`lgan.

Korporatsiyaning ichki local hujjatlari qonun hujjati toifasiga kirmasa ham, korporatsiya a`zolari, ishtirokchilari, ta`sischilar tomonidan tasdiqlangani va korporatsiyaning faoliyat yo`nalishlarini belgilagani sababli korporativ huquq manbasi sifatida tan olinadi⁵⁵. Korporatsiyaning ichki local hujjatlari qonun hujjatlariga mos bo`lishi, korporatsiyaning ta`sis hujjatlariga zid bo`lmasligi kerak. Chunki korporatsiyaning ta`sis hujjatlari uning ichki local hujjatlariga nisbatan yuqori yuridik kuchga egadir⁵⁶.

Korporatsiyalar amal qiladigan ichki tartiblar ularning ta`sis hujjatlarida belgilangan bo`ladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida – ularning ustavlarida, mas`uliyati cheklangan yoki qo`shimcha mas`uliyati cheklangan jamiyatlarida – ularning ustavlarida va ta`sis shartnomalarida, to`liq shirkat va kommandit shirkatlarda – ularning ta`sis shartnomalarida ko`rsatilgan bo`ladi. Ayrim korporatsiyalarda esa ta`sis hujjatlaridan tashqari ularning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan boshqa ichki hujjatlarida ham belgilab qo`yilgan bo`ladi⁵⁷.

Korporativ huquqqa oid normalar sudlar amaliyotiga oid hujjatlarda ham belgilanishi mumkin. Misol uchun, O`zbekiston Respublikasining Oliy xo`jalik sudi Plenumining 2014-yil 20-iyun 262-sodli “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to`g`risda”gi Qarorini ham korporativ huquq manbasi sifatida tan olishimiz mumkin.

⁵⁵ Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND ThEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

⁵⁶ Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

⁵⁷ Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022. – 2022.

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 6-moddasiga ko`ra fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo`lmagan taqdirda mahalliy odat va an`analar qo`llanilishini hisobga olsak, mahalliy odat va an`analar, ish muomala odatlari ham korporativ huquq manbasi sifatida tan olishimiz mumkin⁵⁸.

Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, korporatsiyalarning mavqeyi, ular tomonidan odob-axloq normalariga, korporativ xatti-harakatlarning xalqaro standartlariga amal qilishi ularning reytingini oshishiga, chet el investorlarini jalg etilishiga, jahon fond birjalariga ruhsat berilishiga yuqori darajada ta`sir qilar ekan. Shuning uchun Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkilotining korporativ boshqaruv prinsiplari” ishlab chiqilgan va tashkilotning 1999-yil 26-27-may kunlari bo`lib o`tgan yig`ilishda tasdiqlangan. Ushbu prinsiplarga asoslanib boshqa davlatlar ham o`zlarining korporativ boshqaruv kodekslarini ishlab chiqishgan.

Masalan, Italiyada 1999-yil Korporativ xatti-harakatlar kodeksi, 2001-yil Rossiya Federatsiyasida Korporativ boshqaruv kodeksi tasdiqlangan, 2002-yil Germaniyada Korporativ boshqaruv kodeksi qabul qilingan.

O`zbekiston Respublikasida ham 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 4720-sonli Prezident farmoni bilan 2015-yil 1-avgustiga qadar Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olib Korporativ boshqaruv kodeksi ichlab chilishi va tasdiqlanishi belgilangan. Shu asosda Korporativ boshqaruv kodeksi ishlab chiqilgan va Aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi yig`ilishida tasdiqlangan.

Mazkur Kodeksda aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati ochiqligini ta`minlash, ularning boshqaruvlariga zamonaviy uslublar va standartlarni joriy qilish, korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, boshqaruv organlari samarali tashkil etish bilan bog`liq muhim yo`nalishlar bo`yicha tavsiyalar majmuidan iborat⁵⁹.

Lekin shuni alohida ta`kidlash kerakki, nazariyachi olimlar tomonidan ushbu kodeksga nisbatan 2 xil qarash mavjud. Ayrim olimlar Korporativ boshqaruv kodeksini tavsiyaviy harakterga ega deyishsa, boshqalari esa uni korporatsiyalar majburiyligini hisobga olib, korporativ huquq manbasi sifatida tan olishadi⁶⁰.

Fikrimizcha, Korporativ boshqaruv kodeksi korporatsiya ta`sischilari va xodimlari uchun majburiy bo`lganligi bois korporativ qonunchilik manbasi sifatida hisoblashimiz mumkin.

⁵⁸ Babakulovna I. F. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF VOLUNTARINESS IN THE PROCESS OF MEDIATION IN THE SETTLEMENT OF DISPUTES IN UZBEKISTAN //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – С. 308-315.

⁵⁹ Feruza I. et al. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL SYSTEMS OF FOREIGN COUNTRIES JAPAN, FINLAND AND GERMANY (comparison with the judicial system of the Republic of Uzbekistan) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 2. – №. 24. – С. 313-319.

⁶⁰ Ибратова Ф., Миркамилова М., Каршиева Ф. ЗНАЧЕНИЕ, РОЛЬ И СУЩНОСТЬ МЕДИАЦИИ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПОРAX //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – С. 11-17.



Ushbu kodeksi faqat aksiyadorlik jamiyatlari amal qilishi uchun tavsiyalar belgilab qo`yilgan bo`lsa-da, boshqa korporatsiya turlariga ham tadbiq qilishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 5-13.
2. Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG ‘LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 96-104.
3. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLİSH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.
4. Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O ‘RTASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.
5. Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.
6. Boboqulovna I. F., Orif o’g’li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.
7. Boboqulovna I. F., Mamarjon o’g’li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O’RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.
8. Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.
9. Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG ‘LIQ MASALALARНИNG O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.
10. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.
11. Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.

12. Babakulovna I. F., Ibriaymovich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 42-50.
13. Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.
14. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.
15. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.
16. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND ThEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN ThE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
17. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.
18. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.– 2022. – 2022.
19. Babakulovna I. F. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF VOLUNTARINESS IN THE PROCESS OF MEDIATION IN THE SETTLEMENT OF DISPUTES IN UZBEKISTAN //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – C. 308-315.
20. Feruza I. et al. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL SYSTEMS OF FOREIGN COUNTRIES JAPAN, FINLAND AND GERMANY (comparison with the judicial system of the Republic of Uzbekistan) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 2. – №. 24. – C. 313-319.
21. Ибратова Ф., Миркамилова М., Каршиева Ф. ЗНАЧЕНИЕ, РОЛЬ И СУЩНОСТЬ МЕДИАЦИИ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПОРАХ //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 11-17.